



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



UDK: 631.634

**QORAQALPOG‘ISTONNING KEGEYLI TUMAN TUPROQ-IQLIM SHAROITI
OLTINSIMON QORAG‘ATNI KO‘CHATLARINI KO‘PAYTIRISH**

Xakimova Sojida Rustam qizi

Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik inistituti daktaranti.

Tel: +998884161972

e-mail: hakimovasojida98@gmail.com

Ismetullayev Aitbay To‘rebaevich

Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik inistitutining
Qaqqalpoq ITS direkto‘ri

e-mail: torebatevarislon049@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19244064>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘istonning qurg‘oqchil va sho‘rlanishga moyil hududlarida oltisimon qorag‘at ko‘chatlarini yetishtirishning agroteknik texnologiyalari yoritilgan. Tajribada toshkent shahridagi Mahmud Mirzaev nomidagi “Bog‘dorchilik uzumchilik va vinochilik” ilmiy tadqiqot institutdan olib kelib ekilgan oltisimon qorag‘atning ustida olib borilgan. Oltisimon qorag‘atning navlari ko‘chatlarni yetishtirish davomida ularning issiqlik va qurg‘oqchilikka chidamliligi o‘rganilgan. Ushbu tavsiyalar Kegeyli tuman sharoitida oltisimon qorag‘at ko‘chatlarini yetishtirish samaradorligini oshirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Oltisimon qorag‘at, tuproq, harorat, gumus,navlar.

Аннотация. В данной статье рассмотрены агротехнические технологии выращивания саженцев золотистой смородины в засушливых и склонных к засолению районах Каракалпакстана. Исследования проводились на сортах золотистой смородины, привезённых и высаженных из Научно-исследовательского института садоводства, виноградарства и виноделия имени Махмуда Мирзаева (г. Ташкент). В процессе выращивания саженцев изучалась их устойчивость к высоким температурам и засухе. Представленные рекомендации имеют практическое значение для повышения эффективности выращивания саженцев золотистой смородины в условиях Кегейлийского района.

Ключевые слова: золотистая смородина, почва, температура, гумус, сорта.

Annotation. This article describes the agrotechnical technologies for cultivating golden currant seedlings in the arid and saline-prone regions of Karakalpakstan. The experiment was conducted using golden currant varieties brought and planted from the Scientific Research Institute of Horticulture, Viticulture and Winemaking named after Mahmud Mirzaev in Tashkent. During the cultivation of seedlings, the heat and drought resistance of different golden currant varieties were studied. These recommendations have practical significance for increasing the efficiency of growing golden currant seedlings under the conditions of Kegeyli district.

Keywords: Golden currant, soil, temperature, humus, varieties.

Kirish: Oltisimon qorag‘at – ko‘p yillik buta bo‘lib ildiz tizimi 2 m chuqurlikgacha yetadi. Barglari navbat bilan joylashgan, uch-besh bo‘lakli, och va to‘q yashil rangli bo‘lib, bazilari bir oz ayrimlari esa tarvaqaylab ketadi. Tashqi ko‘rinishi krijovninik o‘simlikining



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



barglarini eslatadi. [1] Oltinsimon qoragʻat yorugʻlik yaxshi tushadigan joyda oʻsadi, biroq salqinroq joyda ham yaxshi oʻsishi mumkin. Ortiqcha qorongʻulik va panalash ham yaramaydi: bunda qoragʻatning novdalari choʻzilib ketadi, natijada u kam meva beradi. [2] Oltinsimon qoragʻat qalamchalari noyabrdan to mart oyigacha kesib olinadi 18-20 sm lilik har bir qalamchada beshtadan yaxshi rivojlangan kurtak boʻlishi lozim. Qalamchalarning pastki kurtagi ostidan, tepasi esa kurtakning yuqorisidan kesiladi. Kuzda qalamchalar tayyorlanib, bahorda ekiladigan boʻlsa, ular 50-100 tadan qilib bogʻlanadi, ularga nav koʻrsatilgan paxtachalar bogʻlanadi, qishda yertoʻlada tuproqda koʻmib saqlanadi. Qalamchalar koʻchatzorga qator orasi 70-80 santimetr qatordagi tublar orasi esa 15-10 santimetr qilib yaxshilab haydalgan va tekislangan maydonlarga qoʻlda ariq olib ekiladi. Qalamcha ekilganida tuproq yuzasida uning 1-2 santimetrlik qismi chiqib turish kerak. Mana shu bir ikki santimetrlik qismiga ham daraxt qitbogʻi yoki yumshoq tuproq tashlab qoʻyilgan maʼqul. Bir gektar yerga 120-130 ming dona qalamcha ekiladi. Qalamchalar ekib boʻlingandan keyin tezda aniqlar olinib yer miriqtirib sugʻorilishi kerak.[3]

Materyal va uslublar: Qoraqalpogʻiston sharoitida yerlarning choʻlanishi kuchli boʻlganligi sababli yerlarda tez-tez shoʻr yuvish ishlari olib boriladi. Shoʻr yuvish ishlari odatda kech kuz va qish oylarida oʻtkaziladi. Bazi suv kam boʻlgan yillari erta bahorda ham oʻtkazish mumkin. Yerni shoʻr yuvish jarayonida yer yoppasiga sugʻoriladi bunda yerning yuziga suv chiqib turishi kerak va suv bilan birgalikda tuzlar yer osti qatlamlariga tushadi va yuvilib ketadi. Bizning olib borayotgan tajribamizda oltinsimon qoragʻat qalamchalarini ekish muddatlarini oʻrganish asosiy qismi boʻlib hisoblanadi. Chunki ushbu hudud iqlimi keskin kantinental shu sababli qalamchalarning qishning qora sovuqlariga va yozning quruq issiqlariga chidamliligini oʻrganish. Oltinsimon qoragʻat qalamchalarini ikki hil muddatda ekildi. Yani erta bahorda va kuzda. Birinchi muddatda oltinsimon qoragʻat koʻchatlari kech kuzda tayyorlab qoʻyildi va erta bahorda ekish uchun yer tayyorlanib qalamchalar kovlab olinib tayyorlab olingan yerlarga ekildi. Ikkinchi muddatda esa kuz oyida oltinsimon qoragʻatda shoxlari kesib olindi va qalamchalar tayyorlandi. Ularning bir qismi oʻsha payitda ekildi. Ikkinchi qismi esa erta bahorda ekish uchun tayyorlab kalyus otishi uchun chuqurcha kovlanib tagiga biogumus tashlanib koʻmib qoʻyildi. Erta bahorda qalamchalar kovlab olinib oldinda tayyorlangan maxsus ariqlarga ekildi va 2-3 kungacha ariqlar sugʻorilib turdi. Uchunchi usulda erta bahorda shira harakati boshlanmasdan oldin kesib olib qalamchalar tayyorlab ekildi.

Natijalar va munozara. Akademik M.Mirzayev nomidagi bogʻdorchilik uzimchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot institutidagi oltinsimon qoragʻat kolleksiyasi bogʻidan 6 nav tanlab olinib ularning qalamchalari bahor oyida yerga ekildi. Erta bahorda Oʻzbekistonning janubiy hududidan to shimoliy hududigacha haroratning koʻtarilishi va dexqonchilikning boshlanishi oʻrtasidagi tafovut qariyb 15-20 kunni tashkil etadi. Ushbu hududda mevali daraxt koʻchatlar asosan mart oyining birinchi dekadasida ekish boshlanadi. Ushbu muddat obi-havoga qarab yo oldinroq yoki kengroqqa surilishi mumkin. 2025-yil erta bahor ancha sovuq keldi bahorning birinchi kunlaridanoq qor yogʻdi va ancha sovuq boʻldi keyinchalik yogʻingarchilik kuchaydi yerimiz qish oyida yetarli suv kelmaganligi sababli erta bahorda yerni shoʻr yuvish ishlari olib borildi. Erta bahorda ekilgan navlar ustida biometrik oʻlchovlar olib borilib oʻsishi va rivojlanishi kuzatib borildi. Quydagi jadvalda shulardan qisqacha malumot navlar boʻyicha.

Erta bahorda ekilgan qalamchalarning oʻsishi, sm



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



N	Navlarning nomi	Barg chiqarishi	26.04/38 S	06.05/39 S	16.05/234	26.05/27S	06.06/30 S	16.06/41S	26.06/30 S	06.07/37 S	16.07/40S	26.07/35 S	06.08/35S	16.08/29 S	26.08/38S	06.09/28 S	16.09/26S
1	R1	06.04	4	8	12	15	18	21	24	27	28	30	33	35	37	39	41
2	Yodgor	06.04	5	10	14	17	20	24	26	28	30	33	35	37	38	39	40
3	Muhabbat	05.04	3	5	7	9	11	13	15	16	17	19	21	23	25	27	28
4	Elik sir	06.04	4	6	8	10	12	15	19	21	22	25	28	30	32	34	36
5	O'zb slatkaya	06.04	5	9	13	17	21	25	28	32	33	35	38	40	42	44	45
6	Valintina	06.04	4	5	8	10	13	16	18	20	21	23	25	27	28	30	31

Ushbu jadvaldagi oltita oltinsimon qoragʻat navlari Mahmud Mirzaev nomidagi bogdorchilik uzumchilik va vinovchilik ilmiy-tadqiqot institutidan seleksiya boʻlimidan olib kelib ekildi. Ushbu hududga moslashuvchanligi harorat bilan mutanosib ravishda oʻrganildi va har 10 kundan biometrik oʻlchovlar olib borildi haroratga bogʻliq holda oʻsish oʻrganildi. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki oltinsimon qoragʻat haroratga chidamli boʻlgani bilan harorat 40 gradusdan oshgan paytida oʻsishni toʻxtatdi.

Xulosa va tavsiyalar. Qoraqalpogʻiston respublikasining tuproq iqlim sharoiti juda ogʻir qishi qahraton soliq yozi esa jazirama issiq hisoblanadi. Shu sababli ushbu mintaqada qurgʻoqchilikga va jazirama issiqlarga chidamli meva turlarini yetishtirish maqsadga muvofidir. Oltinsimon qoragʻat ham huddi shunday tuproq iqlim sharoitiga moslashgan meva turi hisoblanadi va bunga tajribamiz davomida yana bir bora min boʻldik. Ushbu tajribada oʻltinsimon qoragaʻat koʻchatlarining yozning issiq va quruq hovsida qanday oʻzgarishlar boʻlishi kuzatib borildi. Natijalar shuni koʻrsatdiki qoragʻat koʻchatlari harorat 38 S ga yetganda ham yaxshi rivojlanganligi, 40 S dan oshganda esa oʻsishiga salbi tasir koʻrsatishi kuzatildi. Olib borilgan tajriba asosida shuni aniq qilib aytishimiz keraki qalamchalar uchun ozuqa va gumisga boy tuproq kerak. Shu sababli erta bahorda kesib olib erta bahorda biogumus solib ekilgan qalamchalarni unuvchanligi yuqori boʻldi. Kuzda kesib kuzda ekish Qoraqalpogʻiston sharoiti uchun birmuncha samrabermadi. Kuzda tayyorlangan qalamchalar erta bahorda ekilganda ularning unuvchanligi yaxshi boʻldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayev R.M/, Abdullayeva H.R. “Rezavor mevali oʻsimliklar” Toshkent.2020 y 39-41 b
2. Abdullayev R.M, Abdullayeva H.R, Sultonov K, Agzamxodjayev J.B, Qosimov A. “Meva, rezavor meva va sitrus oʻsimliklar agroteknikasi” Toshkent.2021 y 59 b



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



3. Rajametov.Sh, Normurotov.I, Adilov.I, Janokova.D, Namozov.I. “Mevalar va rezavor mevalar va tok koʻchatzorlarini tashkil etish”. Toshkent-2018y 84b